

## BOSHLANG'ICH SINFLARDA INGLIZ TILI O'QITISH METODLARI

### *Qarshiyeva Yulduz*

*Samarqand viloyati Pasdarg'om tumani MMTTga qarashli*


*125-maktabning ingliz tili o'qituvchisi.*

Annotatsiya Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda ingliz tili darsini qay tarzda tashkil qilish, qanday metodlardan foydalanish hamda o'quvchilarni darsga bo'lgan qiziqishini oshirish kabilar yoritilgan.

Kalit so'zlar Boshlang'ich ta'lim, ingliz tili, zamonaviy texnologiyalar, metodlar

Barchamizga ma'lumki, bugungi kunda davlatimiz rahbari tomonidan ta'lim tizimiga juda katta e'tibor qaratilmoqda. Ta'lim tizimiga kiritilayotgan yangiliklar, o'zgartirishlarning barchasi yosh avlodni bilim olishi va ta'lim sifatini oshirishni maqsad qilgan. Yoshlarni kelajakka munosib tarbiyalashda jonkuyar ustozlarning o'rni beqiyos bo'lib, bizdan talab qilinadigan asosiy vazifa bu o'z ustimizda mukammal ishlash va o'quvchilarga puxta bilim berishdir. O'zbekiston Respublikasi "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" da ta'limni tubdan isloh qilishning asosiy yo'naliishlari ko'rsatib o'tilgan bo'lib, uzlusiz ta'lim, ijodkor, ijtimoiy faol, ma'naviy boy shaxs shakllanishi va yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi, deya ta'kidlangan. Ushbu maqolamda men boshlang'ich sinflarda ingliz tili fanini o'qitishga yangicha yondashuv, uning metodlari haqida to'xtalib o'tmoqchiman. Ma'lumki, bugun shiddat bilan odimlab borayotgan zamonamizda chet tillarini bilish davlat siyosati darajasiga yetdi. Chet tilini o'rganish talabi barcha sohalar tarmog'iga kirib bordi. Shunga monand kadrlar ham chet tilini mukammal egallab kelishmoqda. Bunimen ish tajribam orqali boshlang'ich ta'limdanoq yo'lga qo'yishni afzal deb bilaman. Buni zamonaviy texnologiyalar asosida amalga oshirish esa, nur ustiga a'lo nur bo'ladi. Chet tili darslarini audio qurilmalarsiz, CD disklarsiz tasavvur etish qiyin. Ingliz tili darsi bo'ladigan bo'lsa, darsliklarni bilamizki, har bir mavzu listening tekstlari orqali yoritilgan. Masalan, boshlang'ich sinf ingliz tili darsida ertaklar

mavzusi o'tiladigan bo'lsa, o'sha ertakni ekran orqali inglizcha variantini qisqacha tarzda qo'yib bersak, bolada yana ham kuchliroq tasavvur va qiziqish uyg'onadi. Yoki ertak qahramonlarini ekran orqali inglizcha nomlari bilan ko'rsatsak, masalan, bear, wolf, fox, rabbit va hokazo tarzda va o'quvchilar bu hayvonlar qaysi ertak qahramonlari ekanligini va ertak nomini aytishlarini taklif qilish mumkin. Ingliz tili darsini nafaqat zamonaviy texnologiyalar balki, ilg'or metodlarni darsga tadbiq etish orqali ham jonli va qiziqarli o'tish mumkin. Bunda men "Nilufar guli metodi" dan foydalanishni afzal deb bilaman. Bu metod aynan boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun ayni muddaodir. "Nilufar guli metodi" haqida qisqacha to'xtaladigan bo'lsam, ushbu metod keng qamrovli bo'lib, bir mavzu atrofida boshqa mavzularni ham yoritishni, so'zlarni o'z o'mida qo'llay bilishni talab etadi. Masalan, bilamizki, boshlang'ich sinf ingliz tili darsligida "School" mavzusi o'tiladi. Dastlab o'rtadan School so'zini yozamiz. So'ngra School mavzusi o'z atrofiga qaysi mavzularni birlashtiradi, albatta, o'qituvchi, o'quvchi, fanlar, o'quv qurollari, sinfxona jihozlari va hokazolarni tarmoqlarga bo'lib alohida-alohida qilib yozamiz. Quyida ushbu metodni chizma orqali yoritib o'taman.



Yuqorida chizmasi keltirilgan metodni barcha mavzularga qo'llash mumkin. Bundan tashqari yana bir qancha zamonaviy metodlarni qo'llash mumkin. Bu albatta o'qituvchini dunyoqarashi, tasavvuri va malakasiga bog'liqidir. Dars jarayonida qiziqarli metodlarni qo'llash o'quvchilarni fanga bo'lgan qiziqishi va ishtiyoqini yanada oshiradi. Birgina misol, biz qaysi snif yoki qaysi fandan bo'lmasin namunaviy ochiq dars o'tadigan bo'lsak, o'sha darsdagi har bir tushuncha mavzu barcha o'quvchini yodida qoladi va yaxshi o'zlashtirgan bo'ladi. Demoqchi bo'lganim shuki, har bir soatni xuddi namunaviy ochiq dars shaklida tashkil qilsak, zamonaviy metodlardan foydalansak albatta, barcha mavzu o'quvchilar tomonidan chuqur o'zlashtiriladi va ko'zlangan maqsadga erishiladi. Bu yo'lda jonkuyar ustozlarimiz tinimsiz mehnat qilishlari, o'z ustida puxta ishlashlari talab etiladi. Zero , biz ustozlarning maqsadimiz ham yoshlarni kelajakka munosib farzand etib tarbiyalashdir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Chet tillarni o'rghanish tizimini yanadatakomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida PQ-1875- son. Xalq so'zi gazetasi. 2012-yil 12- dekabr.
2. J. Jalolov- ingliz tili o'qitish metodlari- O'qituvchi nashriyoti Toshkent.
3. Turdaliyeva G.N “ Boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'qitishda zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalar” 2020